


“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 30-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 6-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 13-oktabr 2026-yil

OILAVIY-HUQUQIY KOMPETENTLIKNING TARKIBIY TUZILMASI VA UNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Iminova Dilbarxon Mannabovna

Andijon davlat universiteti

Huquq va ma’naviyat asoslari kafedrasi dotsenti v.b.



Annotatsiya. ushbu tesizda oilaviy-huquqiy kompetentlikning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va uning pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, oilaviy-huquqiy kompetentlikni shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni, shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oilaviy-huquqiy kompetentlik, oilaviy qadriyatlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, pedagogik xususiyatlar, kompetentlik tuzilmasi.

Oilaviy-huquqiy kompetentlikning tuzilmasini belgilashda komponentlar sonini sun’iy ko‘paytirishdan saqlanish lozim. Ilmiy adabiyotlarda uch komponentli, to‘rt komponentli va hatto to‘qqiz komponentli modellar uchraydi. Ko‘p komponentli model hodisani batafsil tasvirlashi mumkin, ammo bir-birini takrorlaydigan, mustaqil diagnostika vositasiga ega bo‘lmagan elementlar modelning amaliy qiymatini pasaytiradi. Mazkur tadqiqotda komponent tanlashning uch mezoni qo‘llanadi: u bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining muhim tomonini ifodalashi; ta’lim jarayonida maqsadli rivojlantirilishi; kuzatiladigan ko‘rsatkich va aniq topshiriq orqali baholanishi kerak. Aynan uchinchi mezon vaziyatli-amaliy va kommunikativ-munosabatli faoliyatni bitta komponentga birlashtirmaslikni taqozo etadi: birinchisi kazus, huquqiy xulosa va hujjat kabi yozma mahsulotlar orqali, ikkinchisi esa konsultatsiya, muzokara va simulyatsiya kabi jonli muloqot vaziyatlari orqali baholanadi — diagnostik vositalari tubdan farqli bo‘lgan ikki faoliyatni bitta o‘lchov birligiga qo‘shish

baholashning aniqligini pasaytirgan bo‘lar edi. Shu asosda yettita o‘zaro bog‘liq komponent ajratildi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar, amaldagi qonunchilik va bo‘lajak huquq fani o‘qituvchisining kasbiy vazifalarini umumlashtirish asosida quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi: bo‘lajak huquq fani o‘qituvchisining oilaviy-huquqiy kompetentligi — oila huquqining amaldagi normativ asoslari, prinsiplari va institutlari haqidagi bilimlarni huquqiy qadriyatlar, axborot-tahliliy, vaziyatli-amaliy, kommunikativ-munosabatli, didaktik-metodik hamda refleksiv tajriba bilan birlashtirib, oilaviy-huquqiy muammolarni qonuniy va insonparvar mezonlar asosida hal qilish, ushbu mazmunni turli ta’lim oluvchilarga ilmiy to‘g‘ri va pedagogik maqbul shaklda o‘rgatish hamda o‘z faoliyatini baholab takomillashtirishda namoyon bo‘ladigan integrativ kasbiy-shaxsiy sifatdir.

Taklif etilgan ta’rifda bir necha prinsipial belgi mujassam. Birinchidan, kompetentlikning predmeti “oila haqidagi umumiy tasavvur” emas, amaldagi oila huquqi hisoblanadi. Ikkinchidan, normani bilish faoliyatdan ajratilmaydi: talaba uni topadi, sharhlaydi, vaziyatga qo‘llaydi va asoslaydi. Uchinchidan, huquqiy natija insonparvar va aksiologik mezonlardan uzilmaydi, biroq axloqiy baho huquqiy tahlilning o‘rnini bosmaydi. To‘rtinchidan, kompetentlikning pedagogik yo‘nalishi aniq ko‘rsatiladi: mazmunni o‘rgatish, auditoriyaga moslashtirish va natijani baholash. Beshinchidan, refleksiya yakuniy qo‘shimcha emas, kompetentlikni rivojlantiruvchi ichki mexanizm sifatida qaraladi.

1.2-jadval

Oilaviy-huquqiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Kuzatiladigan kasbiy namoyon bo‘lishi
Motivatsion-aksiologik	Huquq, oila, inson qadr-qimmati, tenglik, ixtiyoriylik, ota-onalik mas’uliyati va bola manfaatlarini kasbiy qadriyat sifatida qabul qilish; qonuniy va etik faoliyatga ichki ehtiyoj.	Oilaviy vaziyatni baholashda taraflarga hurmat bilan yondashadi, kamsituvchi stereotiplardan saqlanadi, bola huquq va manfaatlarini mustaqil mezon sifatida ko‘radi.

Komponent	Mazmuni	Kuzatiladigan kasbiy namoyon bo‘lishi
Kognitiv-huquqiy	Konstitutsiya, Oila kodeksi va bog‘liq huquq tarmoqlari; oila huquqining tushunchalari, prinsiplari, institutlari, subyektlari, huquq va majburiyatlari haqidagi tizimli bilim.	Huquqiy munosabat turini, tegishli institut va normani aniqlaydi; modda mazmunini to‘g‘ri sharhlaydi va tarmoqlararo bog‘liqlikni ko‘rsatadi.
Axborot-tahliliy	Rasmiy huquqiy manbani izlash, hujjatning amaldaligini tekshirish, norma, sud amaliyoti va ilmiy sharhni farqlash; fakt va huquqiy argumentlarni tizimlashtirish.	Lex.uzdan amaldagi tahrirni topadi, modda–qism–bandni aniq ko‘rsatadi, manbalarni tanqidiy qiyoslaydi va asoslangan huquqiy xulosa tuzadi.
Vaziyatli-amaliy	Oilaviy-huquqiy muammoni aniqlash, yuridik ahamiyatga ega faktlarni saralash, taraflarning huquqiy maqomi va manfaatlarini farqlash, xavf omillarini baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, huquqiy qaror va hujjat tayyorlash.	Kazusni hal qiladi, fakt–norma–sharh–oqibat zanjirini quradi, huquqiy hujjat yoki harakat algoritmini ishlab chiqadi, qarorning huquqiy oqibatini asoslaydi.

Komponent	Mazmuni	Kuzatiladigan kasbiy namoyon bo‘lishi
Kommunikativ-munosabatli	Huquqiy maslahat, muzokara va tushuntirish; faol tinglash, neytral savol berish, keskinlikni boshqarish; maxfiylik va professional muloqot chegaralarini saqlash.	Savol beradi va tinglaydi, qarorni sodda hamda aniq tushuntiradi, taraflarga hurmat va maxfiylikni ta’minlaydi, muloqotdagi ziddiyatni konstruktiv boshqaradi.
Didaktik-metodik	Oilaviy-huquqiy mazmunni ta’lim maqsadi, o‘quv vaziyati, metod, vosita va baholash topshirig‘iga aylantirish; yosh va auditoriya xususiyatlarini hisobga olish.	O‘quv kazusi, dars ishlanmasi, infografika va rubrika yaratadi; mikrodarsni tashkil etadi; murakkab normani mazmunini buzmasdan tushuntiradi.
Refleksiv-baholash	O‘z huquqiy va pedagogik qarorini mezon asosida tahlil qilish, xato va stereotiplarni aniqlash, teskari aloqani qabul qilish, faoliyatni qayta qurish.	Huquqiy xulosa va mikrodarsni o‘zini, tengdosh va ekspert bahosi asosida takomillashtiradi; keyingi rivojlanish maqsadini belgilaydi.

Motivatsion-aksiologik komponent kompetentlikning ma’no va qadriyat asosini tashkil etadi. Oila huquqiga oid bilim shaxsiy qarash va maishiy stereotiplardan xoli bo‘lmaydi; talaba o‘z oilaviy tajribasi, madaniy muhiti yoki diniy tasavvurlarini huquqiy norma bilan aralashtirishi mumkin. Shuning uchun mazkur komponent faqat “oilani qadrlash” kabi umumiy munosabat bilan cheklanmaydi. U nikohning ixtiyoriyligi, er-xotin tengligi, inson qadr-qimmati, bola huquqlari, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy hayot daxlsizligi va kasbiy mas’uliyatni huquqiy qadriyat sifatida anglashni qamrab oladi. Oila kodeksining 10-moddasida oila a’zolarining o‘z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shartligi belgilangan; 11-modda esa oilaviy huquqlarni sud, vasiylik va homiylik organlari hamda boshqa davlat organlari orqali himoya qilishni

nazarda tutadi. Demak, qadriy yo‘nalish huquqiy chegaralar va himoya mexanizmlarini anglash bilan birga shakllanishi kerak.

Motivatsion-aksiologik komponentning kasbiy mezoni talabaning deklarativ fikrida emas, qaror tanlashida namoyon bo‘ladi. Masalan, ajrashayotgan ota-onalar o‘rtasidagi nizoda u avtomatik ravishda ona yoki ota tarafini olish o‘rniga, har bir pozitsiyaning huquqiy asosini tekshirishi, bolaning xavfsizligi va rivojlanish ehtiyojlarini mustaqil baholashi lozim. Nikoh shartnomasini “ishonchsizlik belgisi” sifatida axloqiy baholash o‘rniga, uning qonuniy maqsadi va chegaralarini tushuntirishi kerak. Shunday faoliyatgina qadriyatning kompetentlik tarkibida real namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kognitiv-huquqiy komponent oilaviy-huquqiy kompetentlikning predmet asosidir. U oila huquqining predmeti va metodi, manbalari, prinsiplari, nikoh, er-xotin huquq va majburiyatlari, nikoh shartnomasi, ota-ona va bola munosabatlari, aliment, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, chet el elementi mavjud munosabatlar kabi institutlar haqidagi tizimli bilimni qamrab oladi. Bunda bilim moddalar ro‘yxatini yod olish shaklida emas, tushunchalar va institutlar o‘rtasidagi aloqani tushunish shaklida namoyon bo‘lishi kerak. Talaba, masalan, ota-onalik huquqi bilan ota-onalik majburiyati, bolaning yashash joyi bilan bola fikrini hisobga olish, nikoh shartnomasi bilan shaxsiy nomulkiy huquqlar o‘rtasidagi chegarani tushuntira olishi zarur.

Kognitiv-huquqiy komponent tarmoqlararo xarakterga ega. Oilaviy nizolarni hal etishda fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi, konstitutsiyaviy huquq, bola huquqlari, ma’muriy va ayrim hollarda jinoyat-huquqiy normalar o‘zaro bog‘lanadi. Shu bois talaba “Oila kodeksida javob yo‘q ekan, masala huquqiy emas” degan xulosaga kelmasligi, qonun analogiyasi, huquq analogiyasi, xalqaro shartnoma va bog‘liq tarmoqlar normalarini qo‘llash imkoniyatini bilishi kerak. Biroq tarmoqlararo bilim mazmunni ortiqcha kengaytirish emas, oilaviy huquqiy muammoni to‘liq va aniq yechish ehtiyojiga xizmat qilishi lozim.

Axborot-tahliliy komponent zamonaviy huquqiy ta’limning eng dinamik qismidir. Uning mazmuniga huquqiy axborot ehtiyojini aniqlash, qidiruv so‘zlarini to‘g‘ri tanlash, rasmiy manbani topish, hujjat rekvizitlari va tahririni tekshirish, normani kontekstdan

uzmasdan o‘qish, qonun matni, Lex.uz sharhi, sud amaliyoti, ilmiy manba va ommabop internet materialining maqomini farqlash kiradi. Jukova huquqiy axborotni yig‘ish, tizimlashtirish, sharhlash va maqsadga muvofiq qo‘llashni yurist professionalligining asosiy ko‘rsatkichi sifatida baholaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu ko‘nikma ikki karra muhim: u nafaqat o‘z qarorini, balki o‘quvchilarga beradigan bilimning ishonchliligini ham ta’minlaydi.

Mazkur komponentning tahliliy qismi fakt va huquq argumentlarini ajratishda namoyon bo‘ladi. Oilaviy kazusda taraflarning bayoni, hissiy bahosi va yuridik ahamiyatga ega faktlar bir-biridan farqlanishi kerak. Talaba “ota yaxshi inson”, “ona bolaga ko‘proq mehr beradi” kabi subyektiv jumlalarni huquqiy dalil sifatida qabul qilmasdan, bolaning yashash sharoiti, xavfsizligi, tarbiyadagi ishtirok, sud yoki organ vakolati va amaldagi norma bilan bog‘liq faktlarni aniqlashi lozim. Asoslangan huquqiy xulosa norma nomini keltirish bilan tugamaydi; u fakt — norma — sharh — oqibat mantiqiy zanjiri asosida quriladi.

Vaziyatli-amaliy komponent bilimni faoliyatga aylantiradi. U oilaviy-huquqiy muammoni aniqlash, taraflarning huquqiy maqomi va manfaatlarini ajratish, xavf omillarini baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda har bir yechimning huquqiy oqibatini asoslash qobiliyatini qamrab oladi. Kompetentlik aynan noaniq, ma’lumotlari ortiqcha yoki yetishmaydigan vaziyatda sinaladi: nazariy savolga to‘g‘ri javob bergan talaba real kazusda muhim faktni ajrata olmasligi yoki qarorning oqibatini ko‘ra olmasligi mumkin. Shu bois mazkur komponentning rivojlanganligi test bilan emas, yaxlit vaziyatni mustaqil hal qilish jarayoni va uning yozma mahsuloti orqali baholanadi.

Vaziyatli-amaliy komponentga huquqiy hujjat yaratish ham kiradi. Oilaviy munosabatlarda kelishuv, ariza, huquqiy xulosa, maslahat xati yoki harakat algoritmi kasbiy faoliyat mahsuloti bo‘lishi mumkin. Hujjatda huquqiy terminlar aniq, taraflarning huquq va majburiyatlari tushunarli, mazmun qonunga muvofiq va bajarish mumkin bo‘lishi kerak. Hujjat tuzish talabaning norma mazmunini haqiqatan anglagan-anglamaganini ko‘rsatadigan autentik topshiriqdir. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchi hujjatni faqat

tuzibgina qolmay, uning tuzilishi, huquqiy funksiyasi va ehtimoliy xatolarini o‘quvchilarga tushuntirish metodikasini ham egallashi zarur.

Kommunikativ-munosabatli komponent huquqiy yechimni odamlar bilan muloqotga ulaydi. Oilaviy nizolarda muloqotning ahamiyati ayniqsa yuqori, chunki taraflar ko‘pincha munosabatni davom ettiradi va qabul qilinadigan qaror bola hayotiga uzoq muddat ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun professional muloqot faqat ravon nutq emas, faol tinglash, neytral savol berish, tushunarsiz terminni izohlash, maxfiylikni saqlash va keskinlikni boshqarish ko‘nikmalaridan iborat. Vaziyatli-amaliy komponentdan farqli o‘laroq, mazkur komponent yozma mahsulotda emas, jonli o‘zaro munosabatda — konsultatsiya, muzokara va tushuntirish jarayonida — namoyon bo‘ladi va shunga mos vositalar bilan baholanadi.

Jukova huquqiy konsultatsiyaning maqsadlari sifatida mijozga to‘liq axborot berish, mumkin bo‘lgan variantlarni tushuntirish, har bir variantning oqibatini ko‘rsatish, maqbul variantni tanlashga va uni amalga oshirishga ko‘maklashishni ajratadi. Mazkur algoritm oilaviy-huquqiy topshiriqlar uchun samarali, ammo pedagogik kontekstda u qo‘shimcha talab bilan to‘ldiriladi: talaba maslahat mazmunini keyinchalik anonimlashtirilgan o‘quv vaziyatiga aylantira olishi, real shaxslar haqidagi ma’lumotni oshkor qilmasligi va murakkab nizoni sensatsion “qiziqarli keys”ga aylantirmasligi lozim.

Didaktik-metodik komponent tadqiqot obyekti bo‘lgan bo‘lajak huquq fani o‘qituvchisini boshqa yuridik yo‘nalish bitiruvchisidan ajratadigan markaziy komponentdir. U huquqiy mazmunni o‘quv maqsadiga aylantirish, auditoriyaning yosh va tayyorgarlik xususiyatlarini hisobga olish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotni ajratish, tegishli metodni tanlash, o‘quv kazusi va savollar tizimini tuzish, ta’lim vositasini yaratish hamda natijani mezon asosida baholashni qamrab oladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’limning ustuvorligi, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, teng imkoniyat va insonparvar-demokratik yo‘nalish asosiy prinsiplar sifatida belgilangan. Shuning uchun didaktik faoliyatda huquqiy aniqlik bilan bir qatorda ishtirokchilarga teng va hurmatli munosabat ham ta’minlanishi kerak.

Didaktik transformatsiya soddalashtirish bilan aynan bir narsa emas. Huquqiy normani o‘quvchiga tushunarli qilish jarayonida uning yuridik mazmuni, sharti, istisnosi yoki

huquqiy oqibati yo‘qolib ketmasligi kerak. Masalan, “bola kim bilan qolishni o‘zi tanlaydi” degan sodda jumla Oila kodeksidagi bolaning fikrini ko‘rib chiqish va uning eng ustun manfaatidan kelib chiqib qaror qabul qilish haqidagi murakkab mexanizmni buzadi. To‘g‘ri didaktik transformatsiya esa bolaning fikri muhim ekanligini, biroq qaror vakolatli organ tomonidan barcha holatlar va eng ustun manfaat mezoni asosida qabul qilinishini yoshga mos misol orqali tushuntiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 10–11-moddalar [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-104720 (murojaat qilingan sana: 2026.07.31).

2. Жукова И.А. Формирование профессиональной компетентности юриста в процессе обучения в вузе // Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2010. – № 3. – С. 122–123.

3. Жукова И.А. Формирование профессиональной компетентности юриста в процессе обучения в вузе // Право. Журнал Высшей школы экономики. – 2010. – № 3. – С. 124–125.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 4-modda [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007 (murojaat qilingan sana: 2026.07.31).